

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUOPOETIC FEATURES OF INTRODUCTORY UNITS IN LITERARY DISCOURSE****Fazilat Erkinovna Ibragimova**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
 Head of the Department of Primary Education Methodology
 Jizzakh State Pedagogical University
 Science ID: FJZ-0925-0018
 Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: literary text, introductory units, linguopoetics, modality, author's attitude, textual rhythm, literary character's speech, stylistic features.

Received: 01.08.26**Accepted:** 03.08.26**Published:** 03.08.26

Abstract: This article analyzes the linguopoetic and stylistic features of introductory units used in literary texts. Introductory units are approached not merely as syntactic tools, but as elements performing aesthetic functions such as reflecting the author's stance and revealing the character's psychology.

BADIIY MATNDA KIRISH BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK BELGILARI XUSUSIDA**Fazilat Erkinovna Ibragimova**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
 Jizzax davlat pedagogika universiteti BTM kafedrası mudiri
 Ilmiy identifikatsiya raqami: FJZ-0925-0018
 Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: badiiy matn, kirish birliklar, lingvopoetika, modallik, muallif munosabati, matn ritmikasi, badiiy qahramon nutqi, stilistik xususiyatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnda qo'llaniladigan kirish birliklarning lingvopoetik va stilistik xususiyatlari tahlil qilingan. Kirish birliklarga nafaqat sintaktik vosita sifatida, balki muallif pozitsiyasini aks ettirish, qahramon ruhiyatini ochib berish kabi estetik vazifa bajaruvchi birlik sifatida yondashilgan.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВВОДНЫХ ЕДИНИЦ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ**Ибрагимова Фазилят Эркиновна**

*Кандидат филологических наук, доцент
заведующая кафедрой методики начального образования Джизакского государственного педагогического университета
Научный идентификационный номер: FJZ-0925-0018
Джизак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: художественный текст, вводные единицы, лингвопоэтика, модальность, авторское отношение, ритмика текста, речь художественного персонажа, стилистические особенности.	Аннотация: В данной статье анализируются лингвопоэтические и стилистические особенности вводных единиц, используемых в художественном тексте. Вводные единицы рассматриваются не только как синтаксическое средство, но и как единицы, выполняющие эстетическую функцию, такие как отражение авторской позиции и раскрытие психологии персонажа.
--	---

Kirish. Matnda kirish birliklar gap mazmunini ta'kidlash, ma'noni kuchaytirish, subyektiv munosabatni ifodalash maqsadida qo'llaniladi. "Kiritmalar gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan so'zlovchining subyektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi". Shu bilan birga kiritmalar gap mazmuniga va ayrim bo'laklariga izohlash munosabatiga kiradi. Ko'rinadiki, kiritmalar gapning ayrim bo'laklari yoki umumiy mazmuniga bo'lgan izoh yoki turli emotsional munosabatlarni ifodalaydi.

Yuqoridagi bu so'zlar ba'zi adabiyotlarda kirish bo'laklar, boshqalarida kiritmalar deb nomlanib, ularning gap umumiy mazmuniga izohlash munosabatida bo'lishi keng yoritib berilgan. A.Nurmonov ularni sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar deb nomlab, bu shakllar bilan boshqa bo'laklar bilan tobe munosabatga kirishmasa ham, lekin ular mazmuniy tomondan ma'lum munosabatda bo'lgan sintaktik shakllar deb ta'riflaydi. Bu munosabatlarni ikki guruhga ajratadi:

- 1) obyektiv munosabat;
- 2) subyektiv munosabat .

I.Toshaliyev bu hodisaning ayrim xususiyatlariga to'xtalib o'tadi .

Bu ishlarda kirish so'z, kirish birikma grammatik jihatdan to'liq tahlil qilinib, ular gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashi, gapning asosiy bo'laklari bilan bog'lanmaganligi ta'kidlanadi. Chunki ular gap bo'laklariga ajratishning bosh mezoni bo'lgan tobelanish talabiga javob bermas edi.

H.R.Zakirova modal so'z deb qaralayotgan xullas, demak, umuman, masalan kabi so'zlarni ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida kelishini yoritadi. U shunday fikr bildiradi: "Kirish so'z, kiritmalar boshqa bo'laklar bilan bog'lanmas ekan, unda nimaga bog'lanadi? – degan savol

tugʻiladi. Kiritmalarning maʼlum soʻz turkumidan chiqib, asl leksik maʼnolarini yoʻqotish ham ularning modal soʻzlarga koʻchganligini bildiradi, ammo bu modal soʻzlar grammatik jihatdan kengroq va chuqurroq oʻrganilsa, matn sintaksisi, narrativ birliklar nuqtayi nazaridan qaralsa, ularning vazifasi oʻzgarganligi bilinib qoladi. Bizning kuzatishimiz shuni koʻrsatadiki, bu soʻzlar faqat sodda va qoʻshma gaplarni emas, balki yaxlit matn ichidagi qismlarini ham bogʻlab kela oladi. Ayni shu, bogʻlovchilik funksiyasining ular uchun asosiy ekanligi hisobga olinsa, ulardagi modal maʼnoning hozirgi tilda ikkilamchi xarakterdaligi ayon boʻladi. Shu sababdan, biz bu birliklarni semantik bogʻlovchilar vazifasida yakuniy munosabatda oʻrganishni maʼqul koʻrdik”.

H.R.Zakirova yakuniy munosabatda matn ichidagi bogʻlovchilik vazifasini oʻrganadi. Matn qismlari orasidagi munosabatda baʼzi grammatik aloqa birinchi oʻrinda tursa, baʼzan semantik munosabat oldingi planga chiqishi taʼkidlanadi. Yakuniy munosabatda matn bilan yakuniy qism orasida semantik bogʻlanish mavjud boʻlib, bu vaifani semantik bogʻlovchilar bajaradi. Bu paradigmaga kirgan bogʻlovchilarni yakun semasi bir uyaga birlashtiradi. Yakuniy munosabatda bildirilgan xulosa, dalil yoki tasdiq butun matnga taalluqli boʻladi va matn mazmunini umumlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur munosabatdagi asos gʻoya “xulosalash-tasdiqlash” dan iborat. Koʻrinadiki, kirish soʻzlar matnlarda semantik bogʻlovchi vazifasini ham bajarar ekan.

Kiritmalar vazifasida kiritma soʻzlar, kiritma birliklar, kiritma gap ishlatiladi. Kiritma soʻzlar maʼlum soʻz turkumlaridan ajralib chiqib, faqat kiritma vazifasida ishlatiladigan soʻzlar, maʼlum soʻz turkumidan ajralib chiqmagan, kiritma vazifasida ham, gap boʻlagi vazifasida ham qoʻllanuvchi soʻzlar (bunday soʻzlar kiritma vazifasida kelganda leksik maʼnosini yoʻqotadi), modal soʻzlar guruhiga kiruvchi soʻlar ham qoʻllanadi. Bunday kiritma boʻlaklarni quyidagicha koʻrsatish mumkin:

4.1. 1- jadval.

KIRITMA SOʻZLAR		
Faqat kiritma vazifasida ishlatiladigan soʻzlar	Ham kiritma, ham gap boʻlagi vazifasida ishlatiladigan soʻzlar	Kiritma vazifasida keladigan modal soʻzlar guruhiga kiruvchi soʻzlar
<i>Birinchidan, masalan, yaʼni, modomiki, shekilli, afsus, esiz, demak, darhaqiqat, baxtimizga kabi.</i>	<i>Toʻgʻri, rost, shubhasiz, soʻzsiz, aftidan, haqiqatan, odatda, qisqasi, albatta, aytganday, shunday qilib, oxiri kabi.</i>	<i>Yaʼni, shekilli, afsus, esiz, koshki, ehtimo;, shoyad, attang kabi.</i>

Faqat kiritma vazifasida ishlatiladigan soʻzlar yakka, birdan ortiq va takror qoʻllanishi mumkin. Masalan, – Hoji, – dedi Azizbek soʻz ochib, – manim sizni oʻrdagʻa chqirgʻanim sababini, albatta, bilmagandirsiz? Yusufbek hoji xayolidan koʻz ochdi: – Taqdir... chaqirishingiz,

albatta, fuqaroning tinchligi, raoyoning rohati, hukumatning barqaror turmog'i uchundir. (Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar)

Bu misollarda kirish so'zlar (albatta) yakka holatda qo'llanyapti va gapning kesimiga taalluqli bo'lib, kiritmaning gap o'rtasida kelishi buni ifodalayapti. Ushbu kiritmalar tasdiq ma'nosida qo'llanmoqda.

Boyagi akaxonimiz ham gapirdilar-u, menimcha, u kishi boshqa shoirni gapirdilar-ov. Men bilan o'qigan shoir butunlay uning teskarisi edi. (Erkin A'zam. Shoirning to'yi)

-Ha-ha, albatta. Kattamiz, eng kattamiz ham-da, axir! -dedi, Ajoyib domla nafasi ichiga tiqilib, yo'l qo'ygan qaltis xatosini to'g'rilarkan. – Men u kishining muborak nomlarini alohida ta'kidlab aytmoqchi edim. (Erkin A'zam. Shoirning to'yi)

Bu misollarda uchta kiritma ishlatilgan. Birinchisi (menimcha) subyektiv munosabatni bildirayapti, ikkinchisi (albatta) kiritmasi tasdiq ma'nosini, (axir) ta'kid ma'nosini bildirayapti.

Vika bu taklifga bilinar-bilinmas yelka qisadi, onaga esa jon kiradi: – Albatta, albatta, – deydi u. – Borganimiz bo'lsin. Bajonidil. (Erkin A'zam. Shovqin)

Afsus, ming afsuski, dunyoga juda erta kelgan ekanman. (A.Qahhor)

Ushbu misollarda kiritma takror qo'llanayapti. Birinchi misolda albatta kiritmasining takror qo'llanishi tasdiq ma'nosini kuchaytirayapti. Ikkinchi misolda afsus kiritmasi takror qo'llanayapti, o'z-o'zidan afsuslanish ma'nosi kuchaytirilayapti, ammo takrorda kuchaytiruvchi (ming) so'zining ishlatilishi ma'noni yanada kuchaytirayapti, -ki yuklasining ishlatilishi esa qo'shimcha ta'kid ma'nosini bildirayapti.

Kiritma so'zlar ma'lum so'z turkumi bilan ifodalanadi. Masalan,

1) ot so'z turkumi bilan ifodalangan kiritma bo'laklar: xullas, xayriyat, darvoqe, taajjub, chamasi, mayli, holbuki, modomiki, baxtimizga, aftidan, nazarida, odatda, har holda, darhaqiqat, xayriyat, shoyad, taassufki, aksiga, har holda, nazarimda, so'ziga ko'ra, odat bo'yicha, odatga muvofiq, xayriyatki, xayriyat ham, eh, afsus kabilar. Ko'rinadiki, ot so'z turkumi bilan ifodalangan kiritmalar ko'makchilar bilan, ma'noni kuchaytiruvchi turli elementlar bilan birga ishlatilishi mumkin. Masalan,

Rasmi, yomondan qochiladi, zamon shum bo'lsa, yaxshidan ham qochar ekan kishi (A.Qahhor);

Ana bunisi boshqa gap! Xayriyat-e, bo'yniga oldi oxiri. (Erkin A'zam. Shovqin)

2) olmosh so'z turkumi bilan ifodalangan kiritmalar: har qalay, menimcha, sizningcha kabi. Masalan, Xabaringiz bordir, men ko'pdan buyon Hollivud kinokompaniyalari bilan muzokara yuritib kelaman; har qalay, kiroyiginia munosabat bog'lab oldim, shekilli. (Erkin A'zam. Shovqin)

3) sifat so'z turkumi bilan ifodalangan kiritma bo'laklar: to'g'ri, to'g'rirog'i, durust, tuzuk, ajab, qisqasi, so'zsiz, shubhasiz, tabiiy, rost, ma'lumki kabi. Masalan, Qisqasi, hol qolmadi

(A.Qahhor); To'g'ri, o'zaro bahslashayotgan bu har ikki tarafning ham ichida do'stlarim, qadrdonlarim kam emas. Qaysi barmog'ingni tishlama, bir xilda zirqiraydi, bir xilda og'riq beradi, degan gap bor biz, o'zbeklarda. (Erkin A'zam. Shovqin)

4) son so'z turkumi bilan ifodalanadigan kiritma bo'laklar: birinchidan, ikkinchidan, bir tomondan, ikkinchi tomondan kabi. Masalan, Sidiqjon, bir tomondan, O'rmonjonga qanday ro'para bo'lishini... bilmay,.. ikkinchi tomondan, uning xush qabul qilishni umidi bilan entikib kutar edi (A.Qahhor);

– Gap shunda-da, – dedim men. – Birinchidan, yaqin kelajakda biz bu yerda elchixona ochish niyatidamiz, binobarin, elchixona faoliyati va mavjud shart-sharoitlar bilan tanishmog'imiz darkor. Ikkinchidan, o'zingizga ma'lumki, yaqindagina biz ham sobiq Ittifoq tarkibida edik, binobarin, bu elchixonada bizning ham haqqimiz, ulushimiz bor! (Erkin A'zam. Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati)

5) ravish so'z turkumi bilan ifodalangan kiritma bo'laklar: albatta, dastlab, ayniqsa, avval, oxir, xolos, shukur, nihoyat, haqiqatan, umuman, aynan, xususan, asosan, zotan, vaholangki, darhaqiqat, shuningdek, har vaqtdagidek, taxmincha, aksincha kabi. Masalan,

Albatta, siz bu gaplardan bexabarsiz-da (A.Qahhor);

G'ayrat bilan sharillatib o'qib berilgan ro'yxat sal-pal islohga uchrab, lekin, asosan, tasdiqlandi. (Erkin A'zam. Shovqin)

6) fe'l so'z turkumi bilan ifodalangan kiritma bo'laklar: deyman, o'ylaymanki, qaytaraman, kechirasiz, ko'rasizki, bundan chiqdiki, ishonasizmi, bilasizmi, anglashiladiki, bordi-yu, ishon, ko'r, qarang, aytaylik, o'ylab ko'r, shoshma kabi. Masalan, Sidiqjon, deyman, odam deganga andisha, yuzi xotir degan narsa hamma vaqt kerakdir. (A.Qahhor);

Tabriklashing mumkin, syomka boshlandi! – dedi Vika telefonda tantanavorlik bilan; ovozi tiniq, jaranglab eshitilardi. Ishonasanmi, Sokurovning filmida! (Erkin A'zam. Shovqin)

Badiiy matnda kirish so'zlar nafaqat grammatik vosita, balki juda kuchli lingvopoetik xususiyatga ega birliklar sanaladi. Badiiy adabiyotda kirish birliklar obraz yaratish, emotsionallikni ta'minlash, muallifning badiiy maqsadini ochib berish uchun xizmat qiladi. Xususan, kirish so'zlar qahramonlarning xarakteri, ruhiy holati, his-hayajonini ifodalaydi. Ba'zi holatlarda muallif sobir bo'layotgan voqelikka o'z munosabatini ochiq namoyon qilmasdan kirish birliklar orqali imlitsit ifodalaydi. Umuman olganda, badiiy matnda kirish birliklar, o'ziga xos lingvopoetik qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Хозирги ўзбек адабий тили. II Синтаксис. –Тошкент: Фан,1966. –Б.296

2.Абдурахмонов Г. Ўзбек тили грамматикаси. II Синтаксис. –Тошкент: Фан, 1976.

-Б.270.

3.Махмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б. 98.

4.Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструлциялар.// Канд.дисс. –Тошкент, 1968. –Б. 67,95.

5.Закирова Ҳ.Р. Якуний муносабатга кўра эргаштирувчи боғловчилар парадигмалари. “Наука, образование, техника” журналида. (1- сон, 6-9 бетлар) Ош. Қирғ-Узб.универ. 2008